

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ,
НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

УНИВЕРСИТЕТ МАМУНА



ФАКУЛЬТЕТ ФИЛОЛОГИИ

КАФЕДРА РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

МАТЕРИАЛЫ

Республиканской научно-практической конференции

**РУССКИЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРА В
УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ,
ИННОВАЦИИ И КУЛЬТУРНЫЙ
ДИАЛОГ
24 ЯНВАРЯ 2026 ГОДА**

ХИВА – 2026

UO‘K: 65(076.1)(089)

КВК : 27.8ya5

Русский язык и литература в Узбекистане: традиции, инновации и культурный диалог. Сборник статей по итогам Республиканской научно-практической конференции (Хорезм, Хива, 24 января 2026 года). – Хива: Университет Мамун, 2026. – стр.

Сборник научных статей отражает широкий спектр актуальных проблем современной русской филологии, методики преподавания и межкультурного взаимодействия. В статьях первой секции рассматриваются вопросы языковой политики, специфика билингвального образования, учебно-методическое обеспечение, а также проблемы мотивации обучающихся и формирования языковой личности в многоязычной среде. Во второй секции авторы анализируют сочетание классических методик с современными педагогическими технологиями, подчеркивая значимость преемственности и адаптации мирового опыта к национальному контексту. В центре внимания третьей секции электронные образовательные ресурсы, дистанционное обучение, мультимедийные тексты и возможности цифровой среды для развития коммуникативных и аналитических навыков обучающихся. Четвертая секция охватывает вопросы современного русского языка, текстовой интерпретации, междисциплинарных исследований и новых направлений филологического анализа. В пятой секции рассматриваются перспективы развития русской филологии в Республике Узбекистан, ее роль в укреплении культурного диалога, межнационального согласия и международного научного сотрудничества. Сборник адресован филологам, преподавателям, аспирантам, студентам и всем, кто интересуется проблемами русского языка и литературы в контексте современного образовательного и культурного развития.

ISBN: 978-9910-9568-0-8

Рецензенты:

Чупонов О.О. - DSc, доцент кафедры русского языка и литературы УрГУ

Рузметов С.А. - PhD, доц. кафедры русского языка и литературы УТУ «RANCH»

Редакционная коллегия:

Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна – кандидат филологических наук, доцент кафедры русского языка и литературы университета Маъмуна

Матназаров Жавланбек Кабулович - PhD., доцент кафедры узбекского и восточных языков университета Маъмуна

Сапарова Мохира Файзуллаевна – PhD., и.о. доцента кафедры западных языков и литературы университета Маъмуна

©Ma'mun universiteti, 2026

©“QAL’A” nashriyoti, 2026

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, termin va terminologiya tilshunoslikning muhim va ajralmas qatlamlaridan biri bo'lib, fan, texnika, ishlab chiqarish hamda boshqa ijtimoiy sohalarning rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. Maqolada termin tushunchasining mohiyati, uning umumiste'moldagi so'zlardan farqli jihatlari, shuningdek, terminologiyaning tizimli va tartiblangan hodisa ekanligi turli olimlar qarashlari asosida yoritib berildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, termin muayyan soha tushunchasini aniq, bir ma'noli va definityyaga ega holda ifodalovchi nominativ birlik bo'lib, u terminologik sistema doirasidagina to'liq mazmun kasb etadi.

Shuningdek, termin va professionalizmlar o'rtasidagi farqlar, terminlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, ularning semantik, funksional, derivatsion va pragmatik xususiyatlari atroflicha tahlil qilindi. O'zbek terminologiyasining boyib borishi asosan ichki so'z yasash va boshqa tillardan so'z olish hisobiga amalga oshayotgani, terminologik tizimning barqarorligi esa uning tartibga solinganligi va muntazamligi bilan bog'liqligi asoslab berildi.

Umuman olganda, terminologiya muayyan fan va soha tushunchalarini ifodalovchi, ilmiy muloqotni aniq va izchil tashkil etishga xizmat qiladigan muhim lingvistik hodisadir. Terminlarni yaratish, tartibga solish va me'yorlashtirish masalalari bugungi tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar ilm-fan taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.-T.: Fan, 1982.
2. Danilenko, V, P. Russkaya terminologiya: Opit lingvisticheskogo opisaniya [Tekst] / V. P. Danilenko. - M.: Nauka, 1977.S.15
3. Grinev, S. V. Vvedeniye v terminovedeniye [Tekst] / S. V. Grinev. - M.: Moskovskiy Litsey, 1993.C.15-1
4. Hamidulla D. "O'zbek terminologiyasi". Toshkent: Yoshlar Nashriyot uyi, 2019.
5. Husanov N.A., Dilmurodova N.A. "O'zbek tili" fanidan o'quv-uslubiy majmua. -Toshkent: TMI, 2018. 366 b.
8. Мусаев К.М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. 1986. -с.163).
9. Rahmonberdiyeva, S. (2024). BINO-INSHOOTLAR QURILISHIGA OID TERMINLARNING XUSUSIYATLARI. Farg'ona davlat universiteti, (4), 145-145.
10. Raxmonberdiyeva, S., & Qurbonova, G. (2018). THEORETICAL APPROACHES TO THE PROBLEM OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. Теория и практика современной науки, (1 (31)), 48-49.
11. Shoabduraxmonov Sh. O'zbek adabiy tili va xalq shevalari -T.: 1960.
12. www. literature, uz
13. www. genhis philol.ru
14. www. library.ziyonet.uz
15. <https://fayllar.org/til-va-terminologiya.html>

IBN SINONING ARAB FONETIKASIGA DOIR QARASHLARI

*Nafosat Rustamiy,
Oriental universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi
kechki ta'lim shakli 5-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Sirojiddin Sotvoldiyev,
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası dotsenti v.b.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'rta asr sharq ilm-fani tarixida muhim o'rin tutgan Abu Ali Ibn Sinoning arab fonetikasiga oid qarashlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot asosan uning "Asbāb ḥudūt al-ḥurūf" nomli risolasiga tayangan holda olib borilib, unda nutq tovushlarining hosil bo'lish sabablari, havo oqimi, nutq apparati a'zolarining o'zaro munosabati hamda tovushlarning fiziologik va akustik xususiyatlari yoritiladi. Ibn Sinoning tovushni faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki inson organizmidagi tabiiy jarayonlar mahsuli sifatida talqin qilishi uning fonetik qarashlarining asosiy xususiyatini belgilaydi. Maqolada olimning musiqashunoslik va tibbiyot sohasidagi bilimlari fonetik tahlilga qanday ta'sir ko'rsatgani ham ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Ibn Sino, arab fonetikasi, nutq tovushlari, artikulyatsiya, akustik fonetika, tovush hosil bo'lishi, nutq apparati, o'rta asr tilshunosligi.

O'rta asr sharq mutafakkirlari, xususan, arab tilidagi nutq tovushlarining tabiati, hosil bo'lish mexanizmlari, fonetik hodisalar va artikulyatsiya jarayonini ilmiy asosda yoritgan olimlar orasida Abu Ali Ibn Sino (980–1037)ning o'rni beqiyosdir. U "Ash-Shifo", "Tib qonunlari" va shu kabi boshqa asarlarning ma'lum bo'limlarida nutq tovushlarini fiziologik va akustik xususiyatlarini tahlil etgan va arab fonetikasining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan buyuk olim sifatida e'tirof etiladi [Karimov, 2018, 56-b.].

Shu bilan birga, Abu Ali Ibn Sinoning til tovushlariga oid qarashlari eng mukammal va tizimli tarzda uning «أسباب حدوث الحروف» (**Asbāb ḥudūt al-ḥurūf**) nomli maxsus risolasida bayon etilgan. "Mazkur asar arab tilshunosligi tarixida **bevosita va to'liq nutq tovushlariga bag'ishlangan eng muhim ilmiy manbalardan biri** hisoblanadi. Risolaning asosiy e'tibori tovushlarning hosil bo'lish sabablari, nutq apparati a'zolarining ishtiroki hamda tovushlarning fiziologik va akustik xususiyatlarini izohlashga qaratilgan" [Rahmaniy, 2010, 52-64-b.].

Ibn Sino ushbu risolada arab tili tovushlarini faqat til tizimining unsuri sifatida emas, balki **inson organizmidagi tabiiy jarayonlar natijasi** sifatida tahlil qiladi. Tovushlarning hosil bo'lishida havo oqimi, bo'g'iz, og'iz bo'shlig'i va boshqa nutq a'zolarining o'zaro uyg'un faoliyati ilmiy asosda yoritiladi. Bu jihat "Asbāb ḥudūt al-ḥurūf" risolasining fonetika va nutq fiziologiyasi tutashgan nuqtada yaratilgan noyob ilmiy asar ekanini ko'rsatadi.

Bu asarning yaratilishi olim uchun tasodifiy hol emas. Tovush hodisalarini o'rganish Ibn Sinoning qiziqtirgan katta masalaning kichik bir bo'lagi edi. Inson jismining tuzilishini mukammal bilish nutq a'zolarining to'liq tavsifini berish uchun asos bo'ldi. Bundan tashqari Ibn Sinoning musiqa sohasidagi chuqur bilimi tovushlar haqidagi masalalarni tahlil qilishga zamin yaratdi. Bu asarda tovushlar haqida va ularning nutq a'zolarida paydo bo'lishi haqida bayon qilinadi [Amina, 1997, 168-b.].

Boshqa tomondan Ibn Sinoda arab fonetikasining an'anaviy bo'limlari bo'lgan idg'am va ibdal, ya'ni tovush o'zgarishi haqidagi bo'limlar yo'q. Bir so'z bilan aytganda Ibn Sino risolasi artikulyator va akustik fonetika masalalariga bag'ishlangan. Bundan tashqari undosh tovushlar tavsifini bayon etish uslubi hamda boshqa arab filologlarida noma'lum bo'lgan fonemalarning definitiyasining ba'zi bir uslublari, korrelyatsiya oppozitsiyasi (qarama-qarshilik), korrelyatsiya (bir turdagi bir necha oppozitsiyalarning majmuasi) si keltirilgan. Boshqa tildagi tovushlarning alohida bobda tadqiq qilinishi ham Ibn Sino asaridagi o'ziga xoslikdir [Axvelediani, 1966, 8-b.] Shuning o'zi Ibn Sino fonetik risolasining original xarakterini shartlab beradi. Ammo bu Ibn Sino asarini original asar sifatida umumiy baholash uchun kamlik qiladi.

Bu asar kirish qismi va olti bobdan iborat. Birinchi bob umuman tovushning hosil bo'lishiga bag'ishlangan. Unda tovush paydo bo'lishining bevosita sabablari, tovushning eshitish a'zolari orqali qabul qilish hodisasi ko'rib chiqiladi.

Ikkinchi bobda nutq tovushlarining paydo bo'lishi umumiy tovushlarning o'zgargan shakli ekanligi haqidagi nazariya asoslanadi. Shuningdek, nutq tovushlarining hosil bo'lish yo'llari va sabablari aytilgan. Nutq a'zolarining umumiy tavsifi, unli tovushlarning uzun, qisqaligiga qarab ajratilishi ham shu bobga kiritilgan.

Uchinchi bobda har bir nutq a'zosining tuzilishi va faoliyati (anatomya va fiziologiya) tahlil qilinadi (xiqildoq, xalqum, og'iz bo'shlig'i, til, burun bo'shlig'i).

To'rtinchi va beshinchi boblarda nutq tovushlarining tahlili (fiziologik va akustik xarakteristika) keltiriladi. To'rtinchi bobda arab adabiy tili fonemalari, beshinchi bobda undoshlarning ayrim variantlari va boshqa tillardagi (fors, xorazm, turk) undoshlarning turlari ko'rib chiqilgan.

Oltinchi bobda tovushlarning nutqdan tashqarida turli fizik hodisalarda ham hosil bo'lishi haqida ma'lumot berilgan.

Birinchi bob "Tovushlarning hosil bo'lishi" deb nomlanadi. Ibn Sinogacha bo'lgan arab tilshunoslari tovushning hosil bo'lishi haqidagi nazariyani ishlab chiqqan edilar. Bu ishda arab musiqashunosligining ham katta ta'siri bo'lgan. Ya'ni fonetika va musiqashunoslik bir-biriga uzviy bog'liq holda rivojlangan. Ibn Sino asarida ham bu hodisa yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, olimning musiqashunoslikka bag'ishlangan kichik asarining borligi fikrimizning dalilidir.

Ibn Sino bu asarning ya'ni «Fonetika oid risolasi»ni tasodifan yozmagan. U uning faoliyatining asosiy qismi hisoblangan. U mantiqiy muammolarni hal qilishda, musiqashunoslik va o'zining musiqa sohasidagi qilgan mehnati fonetika-akustika savollariga bag'ishlangan. Unda tovush paydo bo'lishi, eshitish organlariga ta'siri va boshqa ko'plab masalalar yoritilgan. Shu bois, bu o'z hajmi bo'yicha kichik bo'lgan asar ma'lum ma'noda Ibn Sino faoliyatining sintezi hisoblanadi.

Ibn Sinoning ta'rifi bo'yicha tovushning hosil bo'lishi havoning to'liqsimon harakati va havoning qandaydir sababga ko'ra kuch bilan tez tarqalishidir. Sabablardan ikkitasi ta'kidlanadi: "to'qnashuv" (qar') va "ajralish" (qal'). Mana shu ikki qarama-qarshi hodisalardan biri natijasida havo oqimi tovush chiqarib tebranadi va tarqaladi. U havoning tebranishi va tovushni

yaxshi qabul qiluvchi eshitish kanaliga va pardaga yetib boradi. To‘qnashuvda hosil bo‘lgan to‘lqin uzunroq bo‘ladi.

Urish holatida zarba beruvchi jism havoni kuch bilan siqib, uni tez va shiddat bilan harakatga keltiradi. Ajralish holatida esa havo bo‘shagan makonga birdaniga kuch bilan tortiladi. Bu hodisalar jismlar orasidagi hosil bo‘ladigan tovush hodisalari edi. Shu tariqa, Ibn Sino tovushning yuzaga kelishini murakkab fiziologik va fizik jarayon sifatida talqin qiladi.

Ibn Sino nutq apparatini izchil va chuqur tahlil qilgan alloma bo‘lishiga qaramay, zamonaviy anatomiya nuqtai nazaridan qaralganda, u tovush hosil bo‘lishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tovush paychalari masalasiga alohida to‘xtalib o‘tmaganini ko‘rish mumkin. Shunga qaramay, uning umumiy anatomik va fiziologik tavsiflari o‘z davri uchun yuksak ilmiy saviyada bo‘lgan.

Shundan so‘ng Ibn Sino harflarning chiqish o‘rinlari va ularning hosil bo‘lish mexanizmlariga bag‘ishlangan navbatdagi to‘rtinchi bobga o‘tadi. Bu bobda Ibn Sino harflarning chiqish o‘rinlarini va ularning hosil bo‘lish jarayonini eng uzoq chiqish joyi — halqumdan boshlab, eng yaqin chiqish joyi — lablargacha izchil bayon qiladi. Mazkur tahlilda olim asosan tovushning fizik tomoniga e‘tibor qaratadi, biroq zarur o‘rinlarda tovushning fiziologik jihatlariga ham murojaat qiladi.

Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi bilimlari yaqqol seziladi. U harflarning chiqish o‘rinlarini belgilash jarayonida lingvistik emas, balki tibbiy terminologiyadan foydalanadi. Masalan, u "ع" tovushini havoning qusishga o‘xshash holatda chiqadigan joyida yuzaga keladi, deb ta’riflaydi va uni tomoqdagi g‘arg‘aralashga o‘xshash jarayon bilan bog‘laydi. Bu o‘rinda qo‘llangan atamalar tilshunoslikka emas, balki tibbiyot faniga mansub bo‘lib, Ibn Sinoning sohalararo ilmiy yondashuvini ko‘rsatadi [Ansariy, 1968, 45-b.].

Ibn Sino arab tilidagi tovushlarga o‘xshash bo‘lgan, biroq adabiy arab tilida mavjud bo‘lmagan harflarni tahlil qiladi. Uning ta’kidlashicha, bunday tovushlar ayrim qadimgi tillarda, shuningdek turkiy va fors tillarida uchraydi. Ba’zi hollarda esa ushbu tovushlarning aniq artikulyatsion manbasi mavjud emasligi qayd etiladi.

Risolaning eng diqqatga sazovor jihatlaridan biri — oltinchi bobdir. Chunki aynan shu bobda Ibn Sino tovush ishlab chiqarish masalasini alohida ilmiy yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqadi. U ayrim nutq tovushlarini nutqiy bo‘lmagan, ya’ni sun’iy yo‘llar orqali hosil qilish mumkinligini isbotlashga harakat qiladi. Tahlilni eng uzoq chiqish manbayiga ega bo‘lgan ع tovushidan boshlaydi va uning sun’iy hosil bo‘lish jarayonini tushuntiradi.

Ibn Sinoning bu boradagi kuzatuvlari uning ilmiy tafakkuri va sinchkovligini yaqqol namoyon etadi. U kuchli va qattiq tovushlarning nutqsiz yo‘l bilan hosil bo‘lishini nutq tovushlari bilan qiyoslab izohlaydi. Masalan, u ع tovushining tabiatini daraxtlarning shitirlashi bilan taqqoslaydi. Bunday tovush shamol bosimi ta’sirida yuzaga keladi. Xuddi shuningdek, ayrim tovushlar ham kuchli bosim, to‘liq to‘silish va ishqalanish natijasida hosil bo‘ladi. Shamol harakati bilan tovush sifati o‘rtasidagi bu o‘xshashlik Ibn Sinoning ilmiy kuzatuvchanligidan dalolat beradi.

Shundan soʻng olim boshqa tovushlarning ham sunʼiy usullar orqali hosil qilinishini izohlaydi va chet tovushlarni yuzaga keltirishning ikki usulini keltiradi. Jumladan, \downarrow tovushining kaftni nam yuzaga urish yoki biror jismni birdaniga tushirish orqali, yaʼni havoni bosim ostida siqish natijasida yuzaga kelishi mumkinligini tushuntiradi. Shu orqali Ibn Sino hech qanday maxsus vositalardan foydalanmasdan, tovush hosil boʻlish jarayonini ilmiy asosda tushuntirgan dastlabki olimlardan biri sifatida namoyon boʻladi.

Adabiyotlar

1. Āmina Ibn Mālik. *al-Fikr aṣ-Ṣawtī ʻinda Ibn Sīnā*. // *Majallat al-Ādāb li-Jāmiʻat Qusanṭīna*. – 1997. – al-ʻadad 4. – ʃ. 168–179.
2. Ахвледиани В.Г. Фонетический трактат Авиценны. – Тбилиси: Мецниереба, 1966.
3. Anṣārī Shakīb. *Ibn Sīnā wa-Ūrāshnāsī*. – Hamadān: Majmūʻat al-maqālāt fi muʻtamar Ibn Sīnā. – 1968.
4. Karimov M. *Sharq tilshunosligi tarixi*. – Toshkent: OʻzMU, 2018.
5. Rahmaniyy Isʻhaq. Ibn Sina va ilmu-s-sawtiyyat. // *Majallat Jāmiʻat Ibn Rushd fi Hūlandā*. – 2010, kānūn al-awwal – al-ʻadad 1. – ʃ. 52–64.

INGLIZ TILIDAGI SOʻZ MAʼNOLARINING TARIXIY RIVOJLANISHI VA ULARNING OʻZBEK TILIGA TARJIMASIDAGI MUAMMOLAR (DIYAKRONIK SEMANTIK TAHLIL ASOSIDA)

Sabirov Asror Abdullayevich

*Nemis tili fani oʻqituvchisi, 10.00.06- “Qiyosiy adabiyotshunoslik, chogʻishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik“ ixtisosligi boʻyicha mustaqil izlanuvchi
Maʼmun universiteti, Xorazm viloyati, Xiva shahri
Narbayeva Shaxruza Erkinbay qizi
Filologiya fakulteti, Lingvistika taʼlim yoʻnalishi birinchi kurs talabasi
Maʼmun universiteti, Xorazm viloyati, Urganch shahri*

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz tilidagi soʻz maʼnolarining tarixiy rivojlanishi diyakronik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda semantik oʻzgarishlarning asosiy turlari — maʼno kengayishi, torayishi, pejoratsiya, amelioratsiya, metafora va metonimiya jarayonlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Ingliz tilining qadimgi, oʻrta va zamonaviy davrlariga oid leksik birliklar misolida soʻz maʼnolarining jamiyat taraqqiyoti, madaniy va ijtimoiy omillar bilan bogʻliq holda oʻzgarishi koʻrsatib berilgan. Shuningdek, ushbu semantik oʻzgarishlarning ingliz tilidan oʻzbek tiliga tarjimasida yuzaga keladigan muammolar, xususan, ekvivalent yetishmasligi, madaniy nomuvofiqlik va konnotativ maʼno yoʻqolishi masalalari tahlil qilingan. Maqolada tarjima jarayonida diyakronik omillarni hisobga olish zarurligi asoslab berilib, samarali tarjima strategiyalari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari ingliz–oʻzbek tarjimashunosligi hamda qiyosiy tilshunoslik uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit soʻzlar: diyakronik semantika, semantik oʻzgarish, ingliz tili, soʻz maʼnosining rivojlanishi, tarjima muammolari, ingliz–oʻzbek tarjimasi, tarixiy tilshunoslik, konnotatsiya, leksik semantika

Til — doimiy harakatda boʻlgan ijtimoiy hodisadir. Har bir til tarixiy taraqqiyot jarayonida fonetik, grammatik va, ayniqsa, semantik jihatdan oʻzgarib boradi. Soʻz maʼnolarining vaqt oʻtishi bilan oʻzgarishi tilshunoslikda **diyakronik semantik oʻzgarishlar** tushunchasi bilan izohlanadi. Ingliz tili misolida olib